

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI
PhD.03/30.12.2019.B.02.08 RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDAGI
BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

**SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI,
CHORVACHILIK VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI**

BAYSARIYEVA CHAROS USMANOVNA

**ELEKTRON RESURLAR YORDAMIDA TALABALAR MUSTAQIL
TA'LIM MAZMUNINI TAKOMILLASHTIRISH USLUBIYOTI
(BIOTEXNOLOGIYA FANI MISOLIDA)**

13.00.02 – Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (biologiya)

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Samarqand – 2025

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on pedagogical sciences**

Baysariyeva Charos Usmanovna

Elektron resurslar yordamida talabalar mustaqil ta’lim mazmunini takomillashtirish
uslubiyoti (Biotexnologiya fani misolida) 3

Байсариева Чарос Усмановна

Методология совершенствования содержания самостоятельного образования
студентов с помощью электронных ресурсов (на примере курса
Биотехнология)21

Baysariyeva Charos Usmanovna

Methodology for improving the content of independent education of students with
the help of electronic resources (on the example of the course Biotechnology).....41

E’lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works 45

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI
PhD.03/30.12.2019.B.02.08 RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDAGI
BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

**SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI,
CHORVACHILIK VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI**

BAYSARIYEVA CHAROS USMANOVNA

**ELEKTRON RESURLAR YORDAMIDA TALABALAR MUSTAQIL
TA'LIM MAZMUNINI TAKOMILLASHTIRISH USLUBIYOTI
(BIOTEXNOLOGIYA FANI MISOLIDA)**

13.00.02 – Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (biologiya)

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Samarqand – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.1.PhD/Ped7011 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya ishi Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.samdu.uz) va «Ziyonet» Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Alikulov Begali Saydullayevich

biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Rasmiy opponentlar:

Mustafayev Shomurod Normo'minovich

pedagogika fanlari doktori, dotsent

Xalimov Fazlitdin Zakirovich

biologiya fanlari nomzodi, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Navoiy davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti huzuridagi ilmiy daraja beruvchi PhD.03/30.12.2019.B.02.08 raqamli ilmiy kengash asosidagi bir martalik Ilmiy kengashning 2025-yil «27» may soat 14⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 15-uy, Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Biokimyo instituti asosiy binosi, 2-qavat majlislar zali. Tel.: (+99866) 239-11-40, faks: (+99866) 239-11-40, e-mail: devonxona@samdu.uz).

Dissertatsiya bilan Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (39-raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 15-uy. Axborot resurs markazi. Tel.: (+99866) 239-11-40.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil «13» may kuni tarqatildi.
(2025-yil «13» may dagi 27 raqamli reyestr bayonnomasi).



T.F. Rajabov

Ilmiy daraja beruvchi bir martalik
ilmiy kengash raisi, b.f.d.

M.S. Kuziyev

Ilmiy daraja beruvchi bir martalik
ilmiy kengash kotibi,
b.f.f.d. (PhD), dotsent

Z.T. Rajamuradov

Ilmiy daraja beruvchi bir martalik
ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar
raisi, b.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar va tez o'zgaruvchan axborot jamiyati talablari oliy ta'limini rivojlantirish va modernizatsiya qilish strategiyalarini aniqlash hamda takomillashtirish muammolarini dolzarblashtirmoqda. Hozirgi ilmiy-texnik taraqqiyot davrida axborotlarning keskin ko'payib borishi katta hajmdagi axborotlarni o'zlashtirishning samarador mexanizmlarini joriy qilishni taqozo qilmoqda. Bu esa o'z navbatida oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak mutaxassislarni tayyorlashda jamiyatning ijtimoiy buyurtmasiga muvofiq kompetensiyalarni shakllantirishga qaratilgan mustaqil ta'lim mazmunini takomillashtirishni talab etadi. Ushbu tendensiyani aks ettiruvchi yangi ta'lim standartlarining joriy etilishi sababli bo'lajak mutaxassislarni tayyorlashda ta'lim mazmunini o'zgartirish bilan bir qatorda o'quv jarayoni, jumladan, talabalar mustaqil ishlarini tashkil etishning innovatsion uslublarini ishlab chiqish va qo'llash muhim ahamiyat kasb etadi.

Dunyo miqyosida bilish faoliyati va kognitiv mustaqillik hamda shaxsning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, elektron ta'lim, elektron resurslar, masofaviy ta'lim texnologiyalaridan oliy ta'lim tizimida samarali foydalanish, elektron ta'lim platformalarini tanlash hamda ularni ilmiy asoslashga qaratilgan tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, kredit-modul tizimidagi pedagogik jarayonining mazmun-mohiyati, ta'lim jarayonining yaxlitligi, inson ruhiyatining mohiyati, shaxsiy darajaning tabiati, uning semantik va aks ettiruvchi sohasi, didaktik jarayonlarni samarali o'zgartirish, mustaqil va tanqidiy fikrlaydigan, professional mahorat darajasi yuqori bo'lgan mobil, ijodiy faol shaxslarni rivojlantirishga qaratilgan tadqiqotlar natijalari muhim ahamiyatga ega.

Hozirgi kunda mamlakatimizda oliy ta'lim tizimining asosiy vazifalarini amalga oshirish uchun yetuk, barkamol shaxsni shakllantirish, bo'lajak mutaxassislarda kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarni rivojlantirish, ularda yangi o'zgaruvchan texnologiyalar va ish faoliyatidagi o'zgarishlarga moslashish qobiliyatlarini rivojlantirish, o'z kasbiy kompetentligini yanada oshirishga qaratilgan uslublarni shakllantirishga alohida e'tibor qaratildi. Bu borada, oliy ta'lim muassasalarida talabalar mustaqil ishlarini tashkil etish samaradorligini oshirish uchun kasbiy kompetensiyani shakllantiruvchi metodlardan foydalanish borasida muayyan natijalarga erishildi. "Raqamli O'zbekiston — 2030" strategiyasida "... oliy ta'lim tizimi uchun elektron ta'lim resurslarini yanada takomillashtirish, shuningdek, ichki va jahon ta'lim resurslaridan foydalanishni ta'minlash"¹, O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasida "... ta'lim jarayoniga raqamli texnologiyalar va zamonaviy usullarni joriy etish, raqamli texnologiyalar asosida individuallashtirish, masofaviy ta'lim xizmatlarini rivojlantirish"² vazifalari belgilab berilgan. Ushbu vazifalardan kelib chiqqan holda, jumladan, talabalar mustaqil ta'limini amalga oshirishda elektron ta'lim resurslarning potensialini baholash, ulardan foydalanish

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktyabrdagi "Raqamli O'zbekiston — 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora tadbirlari to'g'risida" PF-6079-sonli Farmoni

² 2019-yil 8-oktyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" PF-5847-sonli Farmoni

uslubiyotini aniqlash, talabalarning mustaqil ta'limini tashkil etishda elektron resurslar foydalanishga asoslangan modelini ishlab chiqish va qo'llash, elektron ta'lim muhitida talabalarning mustaqil ta'lim mazmunini takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish muhimdir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktyabrdagi PF-6079-son "Raqamli O'zbekiston — 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora tadbirlari to'g'risida"gi, 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-son "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi va 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" gi Farmonlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-son "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarori hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I.«Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda, innovatsion g'oyalari tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari» ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Zamonaviy pedagogika fani jahon sivilizatsiyasi tomonidan ko'p ming yillar davomida to'plangan pedagogik tarbiya va ta'limning ulkan tajribasini birlashtiradi. Pedagogik fikrni shakllantirish va rivojlantirishda O'rta Osiyo mutafakkirlariga munosib o'rin berilgan. Talabalar tarbiyasi va bilim olish faoliyatiga oid g'oyalari Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Muslixiddin Saadi, Abduraxmon Jomiy va boshqalarning asarlarida o'z ifodasini topgan va tadqiqotimiz asosi bo'lib xizmat qiladi.

O'quv jarayoniga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish, oliy ta'lim tizimini raqamlashtirish, ular orqali talabalarga zamonaviy bilimlarni berish, kompyuter savodxonligini oshirish bo'yicha bir qator ilmiy tadqiqotlar olib borilgan.

Akademik S.S. Gulyamov, dotsent M. Abdullayevlar oliy ta'lim tizimini raqamlashtirish, bulutli texnologiyalardan foydalanish orqali ta'lim tizimini isloh qilish, o'qitishda zamonaviy usullar, jumladan interaktiv doskalar hamda planshetlardan samarali foydalanish, talabalarga masofaviy ta'lim berishda raqamli texnologiyalardan foydalanishning zarurati, afzalliklari va masofaviy ta'lim sohasidan foydalanish bo'yicha statistikalar keltirilganlar va raqamli texnologiyalardan foydalanishning yangi avlod tizimlarini joriy etish lozimligi, elektron ta'lim resurslar orqali yangi ko'nikmalarni yoki mavzuga oid materiallarni o'rganish tezroq, osonroq va arzonroq ekanligi atroflicha yoritib berilgan.

S. Allayarova tomonidan O'zbekistonda oliy ta'lim o'quv jarayoni sifati va samaradorligini oshirishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining o'rni, ta'lim jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va ilg'or pedagogik

texnologiyalarning bir-biri bilan taqozolanganligi, sohaning istiqbolli tendensiyalariga nisbatan olib borilayotgan islohotlar dinamikasining tahliliga e'tibor qaratilgan hamda o'quv jarayonini tashkil etishning zamonaviy shakllari va raqamli texnologiyalari imkoniyatlari tahlil qilingan.

Keltirib o'tilgan mualliflarning tadqiqotlarida AKTning ta'lim tizimiga tatbiq etilishidagi ijobiy yutuqlar mustaqil ta'lim orqali amalga oshib, ta'lim oluvchilarning bilim olish, kasb o'rganishga ongli yondashuvini talab qilishi e'tirof etilgan.

Sh.Abdullayeva, N.N. Azizxo'jayeva, F.R. Yuzlikayev, G.K. Baxodirova, Sh.R. Urakov, V.A. Belikov, A.A. Verbiskiy, G. Granatov, M. Quronov, I.Ya. Lerner, A.P. Ogarkova, N.A. Polovnikova, T.I. Shamova, G.I. Shukina va V.A. Yakunin kabi olimlarning ishlari bilish faoliyati va kognitiv mustaqilligi hamda shaxsning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish muammolariga bag'ishlangan.

Ta'lim paradigmasining o'zgarishi natijasida talaba pedagogik ta'sir ob'yektidan bilish faoliyati sub'yektiga aylandi va ushbu metodologik, nazariy asoslarini ko'plab olimlarning asarlari bilan shakllangan va asoslangandir, jumladan:

B. Usmonov, M. Sultanov, V. Urinov, R. Xabibullayev, M. Tojiyev, G. Baxodirova-kredit-modul tizimidagi pedagogik jarayonining mazmun-mohiyati;

R. Axlidinov, B.C. Ilin, U. Inoyatov, Sh. Qurbonov, I. Ya.Lerner, A.Ya. Nain, U. Nishanaliyev, X. Rashidov, E. Saytxalilov, V.V. Serikov, U. Tolipov va boshqalar - ta'lim jarayonining yaxlitligi;

V.I. Zagvyazinskiy, I.A. Kolesnikova, V. A. Slastenin va boshqalar - pedagogik faoliyat mohiyati;

D. Shodiyev, R. Shodiyev, V. Krayevskiy va boshqalar - pedagogik bilimlarning mazmun-mohiyati;

B. Kodirov, R.Sunnatova, G. Shoumarov, G.A. Kovalyov, A.V. Petrovskiy, L.I. Ansiferova va boshqalar - inson ruhiyatining mohiyati, shaxsiy darajasining tabiati, uning semantik va aks ettiruvchi sohasi;

Sh. Abdullayeva, B. Adizov, N. Azizxodjayeva, Sh. Urakov, G. Baxodirova, R. Ibragimov, O. Roziqov, Ye.N. Bondarevskaya, Z.I.Vasilyeva va boshqalar - ta'limning shaxsiy va rivojlantiruvchi funksiyalari;

L.V. Chuprova, O.V. Yershova, E.R. Mullina, O.A. Mishurina, O'. Begimqulov, F. Esanbabayev, R. Jurayev, D. Turdiqulov va boshqalar - elektron ta'lim resurslarning mohiyati, turlari va vositalari;

V.S. Ilin, M.S. Kagan, I.Ya. Lerner - shaxsning intersub'yektiv aloqani rivojlantirish funksiyalari;

Sh. Qurbonov, X. Rashidov, E. Seithalilov, G.S. Batishev va boshqalar - ta'limda yaxlit shaxs muammosi.

O'z o'zini rivojlantirish, idrok etish, mustaqil bilim olish faoliyatini rivojlantirish mexanizmlari sifatida ajratib ko'rsatiladigan o'z o'zini topish, kognitiv funksiyalarini shakllantirish, o'zini dolzarblashtirish shakllarini xorijiy davlat olimlari A. Adler, K. Rodjers, G. Olport, K. Xorni, E. Erikson, Z. Freyd, K.G. Yung, V. Frankl, R. Kettella va boshqalar o'z tadqiqotlarida alohida o'rganish olib borishgan.

Muammoga doir ilmiy ishlar tahlili shuni ko'rsatdiki, mazkur ishlarda bo'lajak mutaxassislarni elektron resurslar yordamida mustaqil ta'lim mazmunini takomillashtirish, ularning o'z intellektual zahiralardan foydalangan holda kelgusidagi o'zini ilgari surish va rivojlantirish istiqbollarini belgilash uchun sharoitlar yaratish muhimdir.

O'zbekiston oliy ta'limini modernizatsiyasi vaqtida, talabalar kognitiv mustaqilligini faollashtirish mohiyatini aniqlash yo'llari ishlab chiqilmoqda, talabalarning shaxsiy-kasbiy o'z o'zini rivojlantirish samaradorligini oshirish vositalari aniqlanmoqda. Ilmiy ishlar tahlili, muammoga doir ishlar maxsus tadqiq etilmaganligini va mazkur yo'nalishda ilmiy izlanish olib borish zarurligini belgilab berdi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti, Biotexnologiya kafedra ilmiy tadqiqot ishlari rejasining "Biotexnologik fanlarni o'qitishda innovatsion texnologiyalarni qo'llashning uslubiy asoslarini ishlab chiqish" mavzusi doirasida amalga oshirilgan.

Tadqiqotning maqsadi oliy ta'lim muassasalarida biotexnologiya fanidan talabalar mustaqil ta'limini tashkil etish uslubiyotini elektron resurslarni qo'llash orqali takomillashtirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

kredit-modul tizimi sharoitida mustaqil ta'lim mazmuni va elektron ta'lim resurslarning turlari, talablari hamda ularning potensialini baholash;

talabalarning mustaqil faoliyatini tashkil etishda elektron ta'lim resurslardan foydalanish uslubiyoti (usullari, vositalari)ni aniqlash;

biotexnologiya fanidan talabalar mustaqil ta'limini tashkil etishning samarali foydalanishga asoslangan modelini ishlab chiqish;

elektron resurslar yordamida biotexnologiya fanidan, talabalarning mustaqil ta'limi mazmunini takomillashtirish texnologiyalarini aniqlash va metodik ta'minotini yaratish;

talabalarning o'zlashtirish ko'rsatkichlari va bilish qobiliyatlarini rivojlantirish mezonlari samaradorligini baholash orqali takomillashtirilgan uslubiyotni qo'llashning natijadorligini asoslash.

Tadqiqotning obykti sifatida elektron ta'lim sharoitida talabalar mustaqil ta'limi mazmunini takomillashtirish jarayoni belgilanib, tajriba-sinov ishlarida Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti hamda Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetining 308 nafar respondent-talabalar jalb etilgan.

Tadqiqotning predmetini interfaol elektron ta'lim resursi asosida talaba mustaqil ishini tashkil etish usullari, shakllari va vositalari hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotlarni bajarish jarayonida nazariy (o'rganilayotgan muammo bo'yicha falsafiy, psixologik, pedagogik materiallarni retrospektiv tahlil qilish hamda olingan ma'lumotlarni o'rganilayotgan hodisaga tarixiy yondashuv bilan birgalikda) tahliliy-sintetik o'rganish, modellashtirish,

empirik (observatsiya usullari (bevosita, bilvosita kuzatish; o'z-o'zini kuzatish, suhbat; guruhli munozara)), bashoratlash, prognostik (ekspert baholash, mustaqil baholarni umumlashtirish), pedagogik eksperiment va statistik (ma'lumotlarni statistik qayta ishlash, natijalarni grafik tasvirlash va boshqalar) usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

biotexnologik fanlarni o'qitish mazmunini takomillashtirishning zamonaviy talablar asosida shakllantirilgan o'quv dialog, muammoli ta'lim, o'quv vazifalari bilan mustaqil ishlash va interfaol ta'lim texnologiyalarining samaradorligini ta'minlashda qo'llaniladigan elektron ta'lim resurslarining turlari, ularning kognitiv faoliyatdagi ahamiyati, ijodiy jarayonga jalb qilish va rag'batlantiruvchi nazorat komponentlarini qo'llashning yangicha yondashuvlarini rivojlantirish imkoniyatlari kengaytirilgan;

mustaqil ishni tashkil etish samaradorligi biotexnologik jarayonlarni o'zlashtirishga yo'naltirilgan topshiriqlarni bajarishdagi ijodiy yondashuv jarayoni, va ta'limiy natijadorligini monitoring qilishga qaratilgan ta'limiy-raqamli elektron resurslardan o'quv va bilish faoliyatining individual samaradorligini oshiruvchi sun'iy to'siqlarni bartaraf etishning zaruriy va ehtimoliy imkoniyatlarini aniqlash asosida takomillashtirilgan;

talabalarning mustaqil ishini tashkil etishda o'z-o'zini nazorat qilish, o'zini-o'zi baholash, ijodiy, tahliliy va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish hamda muammolar yechimini bartaraf etish ko'nikmalarini turli fanlar bilan integratsiyalashgan, o'zini-o'zi tahlil qilish va baholash ko'nikmalarini rivojlantiruvchi elektron ta'lim resurslarini keng qo'llash hamda ta'lim subyektlari ijodiy munosabatlaridagi qayta aloqa mobilligini dinamik oshirish asosida takomillashtirilgan;

biotexnologik fanlarni o'qitishda mustaqil ta'lim olish ko'nikmalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan topshiriqlarini bajarishda zamonaviy biotexnologik ta'limiy resurslar asosida yaratilgan elektron ta'lim resurslaridan keng foydalanish orqali talabalarda ijodiy, tahliliy, kommunikativ, mantiqiy va tanqidiy fikrlashini hamda axborot bilan ishlash, qiziquvchanlik, ilmiy va ijodiy g'oyaviylik, kognitivlik, moslashuvchanlik, kreativlik, global fikrlash, o'z-o'zini boshqara olish qobiliyatlarini rivojlantirish imkoniyatlari kengaytirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

“Biotexnologiya” fanidan interfaol elektron ta'lim resursining modelini yaratish uchun o'qituvchi va talabaning birgalikdagi faoliyatini tashkil etish usullari ishlab chiqilgan (tarkibni tanlash va tuzish, namoyish materiallarini yaratish, mustaqil ta'lim yo'nalishlarini loyihalash);

“Biotexnologiya” fanidan elektron darslikning mobil ilovasi yaratilib, hamda O'zR Adliya vazirligining DGU 26006 raqamli guvohnomasi olingan;

ijodiy jarayonlarni faollashtirish va g'oyalarni amalga oshirish uchun resurslarni erkin tanlashni ta'minlash va bilish uchun qo'shimcha imkoniyatlar yaratish, talabaning samarali o'quv va kognitiv faoliyatini rivojlantirish, talabaning ichki imkoniyatlarini namoyon etish sharoitlari aniqlashtirilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi zamonaviy falsafa, psixologiya, pedagogika tamoyillariga tayanuvchi boshlang'ich nazariy va uslubiy yondashuvlarni ajratib ko'rsatish; tadqiqot muammosiga uning maqsadlari, vazifalari, gipotezasiga mos keluvchi nazariy va empirik usullar majmui; natijalari nazariy xulosalar va amalga oshirilgan ish samaradorligini tasdiqlovchi OTM talabalari kognitiv mustaqilligini faollashtirishga yo'naltirilgan o'rganishni namoyon etishdagi muammoning ko'p tomonlama tahlili bilan ta'minlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati elektron ta'lim resurslar sohasida shakllangan konseptual aspektlari elektron ta'lim resurslarga oid bir qancha tushunchalar kiritish talabalarining mustaqil ishlarini tashkil etish uchun pedagogik vositalar bilan boyitilganligi, ijodiy loyiha, Internetda hisobot berish, onlayn muhokamalar, ma'lumotlar bazalari, elektron jadvallar va qidiruv tizimlari bilan ishlash nazariy jihatidan tushuntirilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati, "Biotexnologiya" fani misolida talabalar mustaqil ishlarini tashkil etish uslubiyoti elektron ta'lim resurslaridan keng foydalanish asosida nazariy qoidalar va xulosalar, eksperimental ishlar natijalari mavjud bo'lganlari bilan bir qatorda zamonaviy elektron ta'lim resurslaridan foydalangan holda talabalarining mustaqil ishlarini tashkil etish va takomillashtirishni yangicha yondashuvdagi usullarining samaradorligi aniqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Oliy ta'lim muassasalarida biotexnologiya fanidan talabalarining mustaqil ta'limi samaradorligini elektron resurslar yordamida oshirish uslubiyotini takomillashtirish bo'yicha olingan natijalar asosida:

oliy ta'lim muassasalarida o'qitiladigan mutaxassislik fanlari bo'yicha talabalar mustaqil ta'limini elektron axborot resurslari yordamida takomillashtirish bo'yicha taklif AIF-2/13 raqamli "O'zbekiston oliy ta'lim muassasalarida o'qituvchi faoliyatini baholash" mavzusidagi xorijiy loyihada foydalanilgan (Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetining 2024-yil 15-iyuldagi 10-3450-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, talabalar mustaqil ta'limi mazmunini takomillashtirish professor-o'qituvchilarga talabalarda bilim olish motivlarini shakllantirish orqali "Ustoz-shogird" tizimi samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqish imkonini bergan;

elektron ta'lim sharoitida talabalar mustaqil ta'limini tashkil etish tamoyillari axborot texnologiyalari vositasi sifatida elektron resurslarga qo'yiladigan didaktik talabalar hamda elektron ta'lim resurslarining ta'lim jarayoniga integratsiyalash mexanizmlarini belgilash asosida aniqlashtirishga oid tavsiyalar "Biotexnologiya" nomli darslik mazmuniga singdirilgan (Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetining 2022-yil 31-martdagi 9-son qaroriga asosan berilgan 505-raqamli nashr ruxsatnomasi va 2024-yil 15-iyuldagi 10-3450-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, elektron ta'lim resurslarini maqsadli tahlil qilish orqali talabalarining mustaqil ta'limini samarali tashkil imkoniyati kengaytirilgan;

elektron ta'lim sharoitida talabalar mustaqil ta'limining mazmuni ta'limning kredit-modul tizimida o'quv jarayonini tashkil etish xususiyatlariga ko'ra mustaqil

ta'limning hajmi, turlari, shakliga asoslanib, mustaqil ta'lim topshiriqlarini ishlab chiqish mezonlarini aniqlashtirish va talabalarning axborotlarni mustaqil izlash, tahlil qilish hamda taqdim etish mexanizmlarini belgilash asosida takomillashtirishga oid takliflardan 60710200-biotexnologiya ta'lim yo'nalishining malaka talablarini ishlab chiqishda foydalanilgan (Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetining 2024-yil 15-iyuldagi 10-3450-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, axborot resurslarining innovatsion uslubda boyitilishi professor-o'qituvchilarga talabalar mustaqil ishlarini zamonaviy yondashuvlar asosida takomillashtirish imkoniyatlarini taqdim etgan;

elektron ta'lim sharoitida talabalarga beriladigan topshiriqlarni mustaqil ta'lim hajmi, turi va shakliga ko'ra yaratish mezonlarini aniqlashtirish, axborotlarni mustaqil izlash, tahlil qilish hamda taqdim etish mexanizmlarini belgilashga oid taklif 60710200-biotexnologiya ta'lim yo'nalishining malaka talablarini ishlab chiqishda foydalanilgan (Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetining 2024-yil 15-iyuldagi 10-3450-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, 60710200-biotexnologiya ta'lim yo'nalishi o'quv rejasida mutaxassislik fanlarning mustaqil ta'lim mazmunini optimallashtirilishiga erishilgan;

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro, 5 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazildi.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi yuzasidan jami 13 ta ilmiy-uslubiy ishlar chop etilgan, shulardan, O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta maqola, jumladan, 1 tasi xorijiy jurnallarda, 4 tasi respublika jurnallarida chop qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 120 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya ishi mavzusining dolzarbligi va zarurati ilmiy asoslangan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatib o'tilgan, muammoning o'rganilganlik darajasi yoritib berilgan, tadqiqotning ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi, maqsadi va vazifalari, ob'yekti va predmeti, usullari, ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, ilmiy va amaliy ahamiyati bayon etilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilganligi, tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmiga oid ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Talabalarning mustaqil ta'lim mazmunini takomillashtirishning ilmiy-nazariy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida elektron ta'lim sharoitida talabalar mustaqil ta'limini tashkil etish pedagogik muammo sifatida tahlil qilinib, kredit-modul tizimida talabalarning mustaqil ta'lim mazmuni, pedagogik jarayonida talabalarining mustaqil ta'limini tashkil etish muammolari ilmiy-nazariy manbalarning tahlili asosida yoritilgan. So'nggi yillarda elektron ta'lim, elektron ta'lim resursi kabi kategoriyalar pedagogik vosita sifatida

ta'limga keng qamrovli yondashuvni aks ettiruvchi fanlar mazmunining kompleks taqdim etish imkoniyatini yaratmoqda.

Tadqiqot tahlili shuni ko'rsatadiki, elektron ta'lim resurslari ta'lim sifatini oshirish uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Jumladan:

- ✓ talabalarning kognitiv faoliyatini oqilona tashkil etish;
- ✓ o'qitish samaradorligini oshirish;
- ✓ individual o'z-o'zini rivojlantirish va o'qitish faoliyatini shakllantirish;
- ✓ o'quv uslubiga va turli qobiliyatlarga ega bo'lgan talabalarni faollashtirish;
- ✓ yangi kognitiv vositalarni egallash;
- ✓ ta'lim jarayonining barcha bosqichlarini faollashtirish.

Oliy ta'lim muassasalarida mutaxassislar tayyorlash jarayoniga yondashuvlar, shuningdek o'qitish texnologiyasining o'zgarishi, xususan elektron ta'lim sharoitida talabalar mustaqil faoliyatini rejalashtirish, tashkil etish va amalga oshirishning mazmuni, shakl, metod va vositalarini hamda ularni baholash tizimini o'zgartirish zaruriyatini yuzaga keltiradi.

Zamonaviy ilmiy manbalar va adabiyotlar tahlili mustaqil ta'lim samaradorligi talabaning maqsad va ehtiyojlariga bog'liq bo'lib, taqdim etilgan o'quv materialini kognitiv va kompetent yondashuv asosida mustaqil o'rganilishi quyidagi omillarga bog'liqligini ko'rsatdi:

- ✓ mustaqil ta'lim topshiriqlarining ta'lim jarayoni uchun nazariy va amaliy faoliyatdagi ahamiyatini anglash;
- ✓ oliy ta'limning dastlabki bosqichlaridan faol ijodiy jarayonga jalb qilish;
- ✓ faol o'qitish usullarini joriy qilish;
- ✓ loyiha-tanlovlarida ishtirok etish;
- ✓ rag'batlantiruvchi nazorat;
- ✓ ma'naviy va moddiy rag'batlantirish;
- ✓ o'qituvchining shaxsi va o'qitish uslubi.

Amalga oshirilgan nazariy-tahliliy tadqiqotlar natijasida, mustaqil ta'lim topshiriqlarini ishlab chiqishda e'tiborga olinishi lozim bo'lgan mezonlar tanlangan. Bu mezonlar quyidagilar:


- mustaqil ta'lim topshirig'idagi o'quv elementi ta'lim jarayoni uchun ahamiyatlilik darajasi bilan belgilanganligi;
- mustaqil ta'lim topshirig'ini bajarishdagi o'quv faoliyati natijalarining amaliy faoliyatdagi ahamiyati ko'zda tutilganligi;
- topshiriqlar ta'lim oluvchining mavjud bilim, ko'nikma va malaka darajasi asosida ularni ijodiy jarayonga jalb qilishi;
- topshiriqlarning ta'lim oluvchilarni faoliyat ko'rsatish asosida muayyan amaliy ko'nikmaga mashqlantirishga yo'naltirilganligi;
- topshiriqlarning loyiha tavsifli bo'lishi, ya'ni mustaqil ta'limdan kutiladigan natijalar oldin ko'zda tutilishi, baholashda olingan natija baholanishi (faoliyat emas) maqsadga muvofiq.

Shu bilan bir qatorda, talabalarning mustaqil ishi quyidagi shakllarda joriy etilishi maqsadga muvofiq deb topilgan:

- talabaning bevosita o‘zi tomonidan (mobil qurilmasi orqali) amalga oshiriladigan mustaqil ish turlari;
- an’anaviy shakldagi o‘qituvchi rahbarligidagi talabaning mustaqil ishi;
- elektron shakldagi (mobil qurilmasi orqali) o‘qituvchi rahbarligidagi talabaning mustaqil ishi.

Shuningdek, mazkur bobda elektron ta’lim sharoitida o‘qituvchi rahbarligidagi mustaqil ishlari mazmuni va vositalari, pedagogik jarayonda talabalar mustaqil ta’limini tashkil etish muammolari batafsil ham yoritilgan.

Dissertatsiyaning “**Mustaqil ta’limni elektron ta’lim resurslar yordamida tashkil etish (Biotexnologiya fanini o‘rganish misolida)**” deb nomlangan ikkinchi bobida elektron ta’lim resurslarining (keyingi o‘rinlarda, ETR) ta’lim jarayoniga integratsiyasi, ETRLarning turlari, yaratish texnologiyasi va standart talablari, ETRLar yordamida talabalar mustaqil ta’limini Biotexnologiya fani misolida takomillashtirish uslubiyotini ishlab chiqishga qaratilgan tadqiqotlar natijalari yoritilgan.




1-rasm. Elektron ta’lim resurslarini tayyorlash va qo‘llashning mantiqiy tuzilmasi

Tadqiqotda dastlab, ETRLarini tayyorlash va qo‘llashning mantiqiy tuzilmasi ishlab chiqilgan (1-rasm). Mazkur tuzilmaga ko‘ra, talabalar mustaqil ishlarini tashkil etishda talabalarda ta’lim maqsadlari va uni amalga oshirish strategiyalariga mos holda mavjud elektron resurslarni tahlil qilish, loyihalash, mantiqiy bog‘lash ko‘nikmalarini shakllantirish zarur. Shu bois, tadqiqot doirasida biotexnologiya

fanidan talabalarning mustaqil ta'lim olish imkoniyatlarini kengaytirishga yo'naltirilgan mobil ilova yaratilgan va qo'llanilgan.

Ma'lumki, ETR lari talabalarga o'quv materialini o'zlashtirish jarayonida o'z-o'zini tashkil qilish va o'zini o'zi baholash imkoniyatini beradi. Shu bois, tadqiqot davomida bugungi kunda ta'lim maqsadida qo'llanilayotgan ETR larining turlari (elektron darslik, elektron o'quv qo'llanma, ma'ruzalar elektron kursi, elektron ma'lumot materiallari, elektron trenajyor (simulyator), virtual laboratoriya, elektron praktikum, elektron kurs, tushunchalar glossariysi, nazorat-baholash vositalari) aniqlangan va tavsiflangan. Shuningdek, ETRlarini yaratish va tadbqiq etish texnologiyasi ishlab chiqilgan (2-rasm).




2-rasm. Elektron ta'lim resurslarini yaratish va tadbqiq etish texnologiyasi

Dissertasiyaning uchinchi bobi "**ETRLar yordamida talabalarning mustaqil ishlarini tashkil etish va takomillashtirish bo'yicha tajriba ishi tahlili**" deb nomlanadi. Mazkur bobda talabalar mustaqil ta'limini takomillashtirish bo'yicha pedagogik tajribani tashkil etish dasturi hamda samaradorlik mezonlari va tajriba natijalarining tahlili keltirilgan.

Talaba o'zining mustaqil ta'lim trayektoriyasini tuzishi qiyin, chunki u maktabdan reproduktiv o'qish va fikrlash uslubiga odatlangan. Shuning uchun talaba mustaqil faoliyatini boshlashdan oldin, individual topshiriqlarni bajarish qobiliyatini rivojlantirish va shundan kelib chiqib, o'z-o'zini tashkil qilish, o'zini o'zi boshqarish, osonidan qiyiniga borish prinsipini his qilish ko'nikmalarini egallash kerak.

Tajriba-sinov dasturimiz aniqlovchi eksperiment natijalari asosida tuzilgan. Shakllantiruvchi tajribaning maqsadi - ETRLar yordamida talabalarning mustaqil ishlarini tashkil etish va takomillashtirishda aniqlangan pedagogik shartlarning samaradorligini tekshirishdan iborat bo'ldi. Bu borada dastlab, ETRLari yordamida

talabalar mustaqil ta'limini amalga oshirishda kognitiv faoliyatni tashkil etishning bosqichlari va pedagogik shartlari ishlab chiqildi (3-rasm).




3-rasm. Elektron ta'lim resurslari yordamida talabalar mustaqil ta'limini amalga oshirishda kognitiv faoliyatni tashkil etishning bosqichlari va pedagogik shartlari

Shakllantirish tajriba-sinov dasturi ikki qismdan iborat edi. *Dasturning birinchi qismi o'qituvchilarning* talabalarni samarali mustaqil o'quv va kognitiv faoliyatini tashkil etishga kasbiy va shaxsiy tayyorgarligini ta'minlashga qaratilgan. O'qituvchilarni eksperimental faoliyatini amalga oshirishga oldindan tayyorlashning eng muhim shartlaridan biri ularning motivatsion tayyorgarligini, pedagogik innovatsiyalarga moyilligini ta'minlash edi, chunki faqat eksperimental

faoliyatning maqsadlariga mos keladigan, o‘qituvchi o‘zini shaxs sifatida anglashi va o‘z-o‘zini samarali amalga oshirishini motivatsiya orqali ta’minlaydi.

Tajriba-sinov ishimizning keyingi qadami, talabalar uchun yaratilgan “Elektron ta’lim resurslar yordamida talabalarning mustaqil o‘quv faoliyatini tashkil etish usullari” ta’lim dasturini amalga oshirish bo‘ldi. Ushbu dasturning amalga oshirilishi o‘qituvchilarni eksperimentda ishtirok etishga nazariy tayyorlashni amalga oshirish, yangi faoliyatga sho‘ng‘ish uchun zarur bo‘lgan bir qator yo‘riqnomalar va ustuvorliklarni shakllantirish imkonini berdi.


Tadqiqotning asosiy tajribalari bugungi kunda ETRlaridan foydalanish holatini aniqlashga qaratilgan so‘rovnoma o‘tkazishdan boshlandi. So‘rovnomada 50 nafar talaba respondent ishtirok etdi. So‘rovnoma natijalari talabalarning ta’lim maqsadida elektron resurslardan foydalanish holatining yuqori emasligini ko‘rsatdi. Biroq, ba’zi texnik muammolarga qaramay, “ETRdan foydalanish jarayonida mustaqil ishingizni yaxshiroq tashkil etishga yordam beradimi?” degan savolga respondentlarning mutlaq ko‘pchiligi (92%) mustaqil ishini yaxshiroq tashkil etishga ETRlar yordam beradi, deb ishonch bilan ta’kidladi (4-rasm).




4-rasm. Talabalarning o‘quv jarayonida elektron ta’lim resurslaridan foydalanish holati (so‘rovnoma natijalari asosida), %

Tajriba-sinovlarni me’yoriy-uslubiy asoslarini yaratish uchun dastlab, Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti va Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetida Biotexnologiya yo‘nalishi talabalariga o‘qitiladigan “Biotexnologiya” va “Biotexnologiyaga kirish” fanlari, Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetida Biologiya yo‘nalishi talabalariga o‘qitiladigan “Biotexnologiya” fani sillabusi elektron resurslardan keng foydalanishga asoslangan mustaqil ta’lim mazmuniga moslashtirildi. Jarayonning samaradorligini yanada oshirish maqsadida, “Biotexnologiya fanidan talabalar mustaqil ta’limini tashkil etish bo‘yicha ko‘rsatmalar” deb nomlangan uslubiy qo‘llanma tayyorlandi va nashr qilindi.

Tadqiqot 2 ta guruhda (nazorat va tajriba-sinov), 2021-2022- va 2022-2023 o'quv yillarida amalga oshildi. Nazorat guruhida talabalarning mustaqil ishlari an'anaviy metodika va amaldagi fan sillabusida ko'rsatilgan tadbirlar asosida, tajriba-sinov guruhlarida esa talabalarning mustaqil ishlari takomillashtirilgan metodikasi asosida amalga oshirildi. Tajribalarda O'zbekistondagi 2 ta universitetning (Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti, Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti) jami 308 nafar talabasi ishtirok etdi. Tajribalarda ishtirok uchun 100% roziligini bildirgan talabalar tanlab olindi. Tadqiqotda jalb qilingan talabalarning 92 tasi nazorat guruhlarida, 216 tasi tajriba guruhlarida o'qitildi. Talabalarning fan bo'yicha mustaqil ta'lim va yakuniy nazoratdagi o'zlashtirish darajasi yakuniy nazorat qaydnomalarini tahlil qilish asosida aniqlandi (5-6 rasm).




5-rasm. “Biotexnologiya” fanidan talabalarning mustaqil ta’lim o’zlashtirish ko’rsatkichlarining nazorat va tajriba guruhлари bo’yicha qiyosiy tahlili



6-rasm. “Biotexnologiya” fanidan talabalarning o’zlashtirish ko’rsatkichlarining nazorat va tajriba guruhлари bo’yicha qiyosiy tahlili

Shu bilan birgalikda, olingan natijalar ETRlar yordamida Biotexnologiya fanidan talabalarning mustaqil ta'limini amalga oshirish uslubiyotidan

foydalanishning ularning motivatsion-irodaviy parametrlariga ta'siri o'rganildi (7-rasm).



7-rasm. ETRlar yordamida Biotexnologiya fanidan talabalarning mustaqil ta'limini amalga oshirish uslubiyotidan foydalanishning talabalarning motivatsion-irodaviy parametrlariga ta'siri, %

1-jadval

Elektron resurslar yordamida Biotexnologiya fanidan talabalarning mustaqil ta'limini amalga oshirish uslubiyotidan foydalanishning talabalarda kognitiv-faoliyat parametri bo'yicha axborot-kommunikatsiya kompetensiyasini shakllantirishga ta'siri

Mezonlar	Darajalar											
	Yuqori				O'rtacha				Past			
	TG*		NG*		TG		NG		TG		NG	
	sonda	%	sonda	%	sonda	%	sonda	%	sonda	%	sonda	%
Boshqaruv	47	21,8	12	13	161	74,5	38	41,3	8	3,7	42	45,7
Axborot	76	35,2	18	19,6	128	59,3	52	56,5	12	5,6	22	23,9
Mantiqiy	67	31	16	17,4	135	62,5	59	64,1	14	6,5	17	18,5

*Izoh. TG – tajriba guruhi; NG – nazorat guruhi.

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra, ETRlar yordamida Biotexnologiya fanidan talabalarning mustaqil ta'limini amalga oshirish uslubiyotini qo'llash

“Biotexnologiya” fanidan talabalarning mustaqil ta’limi va fanni o‘zlashtirish ko‘rsatkichlariga hamda talabalarning motivatsion-irodaviy parametrlariga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Shu bilan bir qatorda, tajribalar davomida takomillashtirilgan uslubni qo‘llashning talabalarda kognitiv-faoliyat parametri bo‘yicha axborot-kommunikatsiya kompetensiyasini shakllantirishga ta’siri aniqlangan (1-jadval). Unga ko‘ra, formativ tajriba natijasida tajriba guruh talabalari axborot-kommunikatsiya kompetensiyasining shaxsiy komponenti mazmunida sezilarli ijobiy o‘zgarishlarni boshdan kechirganligi qayd qilingan.

Shunday qilib, o‘tkazilgan tajriba ish natijalari va ularni tahlil qilish tadqiqot g‘oyasini va himoya uchun ilgari surilgan nazariy vazifalarni isbotlangan deb hisoblash imkonini beradi.

XULOSALAR

Oliy ta’lim muassasalarida biotexnologiya fanidan talabalarning mustaqil ta’limi samaradorligini elektron resurslar yordamida oshirish uslubiyotini takomillashtirish bo‘yicha olib borilgan ilmiy-tadqiqotlar quyidagi xulosa va tavsiyalarga olib keldi:

1. Biotexnologiya fani misolida oliy ta’lim muassasalarida talabalarining mustaqil ta’limini amalga oshirish mazmuni mustaqil ta’lim topshiriqlarini bajarish jarayonini axborot texnologiyalari va elektron ta’lim resurslaridan keng foydalanish kompetensiyasini shakllantirishga yo‘naltirilgan komponentlar bilan uyg‘unlashtirish asosida takomillashtirildi.

2. Tadqiqot davomida ilmiy va uslubiy manbalarda keltirilgan ma’lumotlar hamda tavsiyalar asosida elektron ta’lim resurslarini tayyorlash va qo‘llashning mantiqiy tuzilmasi ishlab chiqildi. Mazkur mantiqiy tuzilmasidagi shartlarni amalga oshirish orqali talabalarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish sezilarli darajada oshgan sharoitda, resurslar orasidan hajmi va zarurati yuqori bo‘lgan ma’lumotlar ajratib olish, tahlil qilish va mantiqiy bog‘lash ko‘nikmalarini shakllantirishi ta’minlanadi.

3. Talabalarning axborot-kommunikatsiya kompetensiyasini shakllantirishga yordam beradigan ETRlar o‘zaro bog‘liq bo‘lgan usullar, vositalar, uni amalga oshirish shakllarini o‘z ichiga oladi va talabalarda quyidagi xususiyatlarni rivojlantiradi:

- zarur ta’lim ma’lumotlarini olish, uni turli shakllarda taqdim etish ko‘nikmalarini egallash;

- tavsiflovchi, tushuntirish, prognostik kognitiv darajalarda o‘quv ma’lumotlarini o‘zlashtirishga qaratilgan operatsiyalarni bajarish;

- aloqa jarayonida o‘quv ma’lumotlarini tushunish;

- o‘zining mustaqil ta’lim faoliyati samaradorligini baholash.

4. Tadqiqotlar davomida talabalarning axborot-kommunikativ kompetensiyasini shakllantirishga qaratilgan samarali o‘quv va kognitiv faoliyatni tashkil etish modeli ishlab chiqildi, mazkur modelni amaliyotga tatbiq etish imkonini beradigan pedagogik shartlar aniqlandi. Mazkur modelni eksperimental sinovdan o‘tkazish natijasida:

- o'quv va kognitiv faoliyatni aks ettirish natijasida talabalar uchun shaxsiy ahamiyatga ega bo'lgan individual o'quv mahsulotini yaratishga yo'naltirildi;

- talabalarda muloqot jarayonida o'quv va kognitiv vazifalarni muvaffaqiyatli hal qilishga yordam beradigan o'quv ma'lumotlarini mantiqiy to'g'ri tuzish va grafik tarzda taqdim etish ko'nikmalari rivojlantirildi;

- talabalar tomonidan olingan individual o'quv mahsulotini, shuningdek uni yaratish va amaliy foydalanish jarayonini aks ettirishga qaratilgan o'quv vazifalari tizimini bajarish tajribasi o'zlashtirildi.

5. Oliy ta'lim muassasalarida talabalariga o'qitiladigan "Biotexnologiya" fanidan talabalar mustaqil ta'limini elektron resurslardan keng foydalanish orqali tashkil etishni nazarda tutuvchi o'quv mashg'ulotlari olib borishning uslubiy-texnik ta'minoti uchun fan sillabuslari, talabalar mustaqil ta'limini tashkil etish bo'yicha ko'rsatmalar (uslubiy qo'llanma) ishlab chiqildi, "Biotexnologiya" fanidan elektron darslikning mobil ilovasi yaratildi hamda qo'llanildi.

6. Tegishli oliy ta'lim muassasalarida olib borilgan tajriba-sinov natijalariga ko'ra, "Biotexnologiya" fanidan talabalarning mustaqil ta'limi samaradorligini elektron resurslar yordamida oshirishning takomillashtirilgan uslubini qo'llash natijasida tajriba guruhlarida mustaqil ta'lim va fan bo'yicha "qoniqarli" o'zlashtirish ko'rsatkichini qayd etgan talabalar nazorat guruhiga nisbatan o'zaro mos holda 34,0 % va 35,9% gacha kamaydi.

Mazkur xulosalarga tayangan holda, oliy ta'lim muassasalarida talabalarning mustaqil ta'limi samaradorligini elektron resurslar yordamida oshirish uslubiyotini takomillashtirish uchun quyidagi **taklif va tavsiyalar** ishlab chiqildi:

-oliy ta'lim muassasalarida biotexnologiya fanidan mashg'ulotlar olib borayotgan professor-o'qituvchilarga talabalar mustaqil ta'limini tashkil etish, topshiriqlarni tayyorlashda mazkur tadqiqot natijasida ishlab chiqilgan va amaliyotda qo'llanilgan mustaqil ta'limni elektron resurslardan keng foydalanish orqali tashkil etishni nazarda tutuvchi fan sillabusi hamda "Biotexnologiya fanidan talabalar mustaqil ta'limini tashkil etish bo'yicha ko'rsatmalar" nomli uslubiy qo'llanmadan (Samarqand Davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti markaziy o'quv-uslubiy Kengashining 2023-yil 20-dekabr 3-sonli qarori) foydalanish tavsiya etiladi;

-oliy ta'lim muassasalarida biotexnologiya fani o'qitilayotgan talabalarga mustaqil ta'lim topshiriqlarini bajarishda fan mazmuni simulyativ va interfaollikka asoslangan taksonomik ketma-ketlikka mos keluvchi moslashuvchan elektron ta'lim resursi sifatida yaratilgan "Biotexnologiya" fanidan elektron darslikning mobil ilovasidan (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining 2023-yil 27-iyundagi DGU 26006 raqamli guvohnomasi) foydalanish tavsiya etiladi.

**РАЗОВЫЙ НАУЧНЫЙ СОВЕТ НА БАЗЕ НАУЧНОГО СОВЕТА
PhD.03/30.12.2019.V.02.08 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ НАУЧНЫХ
СТЕПЕНЕЙ ПРИ САМАРКАНДСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ
УНИВЕРСИТЕТЕ ИМЕНИ ШАРАФА РАШИДОВА**

**САМАРКАНДСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ
ВЕТЕРИНАРНОЙ МЕДИЦИНЫ, ЖИВОТНОВОДСТВА И
БИОТЕХНОЛОГИИ**

БАЙСАРИЕВА ЧАРОС УСМАНОВНА

**МЕТОДОЛОГИЯ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ СОДЕРЖАНИЯ
САМОСТОЯТЕЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ СТУДЕНТОВ С
ПОМОЩЬЮ ЭЛЕКТРОННЫХ РЕСУРСОВ (НА ПРИМЕРЕ КУРСА
БИОТЕХНОЛОГИЯ)**

13.00.02 – Теория и методика обучения и воспитания (биология)

**АВТОРЕФЕРАТ
диссертации доктора философии (PhD) по педагогическим наукам**

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована в Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за номером B2024.1.PHD/Ped7011.

Диссертационная работа выполнена в Самаркандском государственном университете ветеринарной медицины, животноводства и биотехнологии.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский и английский (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета по адресу (www.samdu.uz) и Информационно-образовательном портале «Ziynet» по адресу (www.ziynet.uz).

Научный руководитель: Аликулов Бегали Сайдуллаевич
доктор философии по биологическим наукам (PhD),
доцент

Официальные оппоненты: Мустафаев Шомурод Нормунинович
доктор педагогических наук, доцент
Халимов Фазлитдин Закирович
кандидат биологических наук, доцент.

Ведущая организация: Навоийский государственный университет

Защита диссертации состоится на заседании разового Научного совета PhD.03/30.12.2019.B.02.08 по присуждению ученых степеней при Самаркандском государственном университете имени Шарофа Рашидова от «27» МАЯ 2025 года в 14:00 часов (Адрес: 140104, г. Самарканд, Университетский бульвар, дом 15. Актовый зал института Биохимии Самаркандского государственного университета имени Шарофа Рашидова. Тел.: (+99866) 239-11-40; факс (+99866) 239-11-40; e-mail: devonxona@samdu.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Самаркандского государственного университета имени Шарофа Рашидова (зарегистрировано под номером 39) Адрес: 140104 г. Самарканд, Университетский бульвар, дом 15. Центр информационных ресурсов, Тел.: (+99866) 239-11-40.

Автореферат диссертации разослан «13» МАЯ 2025 года.
(Реестр протокола рассылки № 21 от «13» МАЯ 2025 года).



Т.Ф. Ражабов

Председатель разового научного совета
по присуждению учёных степеней, д.б.н.

М.С. Кузиев

Секретарь разового научного совета
по присуждению учёных степеней
д.ф.б.н. (PhD), доцент

З.Т. Ражамуродов

Председатель научного семинара при
разовом научном совете по присуждению
учёных степеней, д.б.н., профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. Современные социально-экономические процессы в мире и требования быстро меняющегося информационного общества делают все более актуальными проблемы выявления и совершенствования стратегий развития и модернизации высшего образования. В период современного научно-технического развития резкий рост информации требует внедрения эффективных механизмов усвоения больших объемов информации. Это, в свою очередь, требует совершенствования содержания самостоятельного образования, направленного на формирование компетенций в соответствии с социальным заказом общества при подготовке будущих специалистов в высших учебных заведениях. В связи с введением новых образовательных стандартов, отражающих данную тенденцию, наряду с изменением содержания образования при подготовке будущих специалистов, разработка и применение инновационных методов организации учебного процесса, в том числе самостоятельной работы студентов приобретает важное значение.

Во всем мире проводятся исследования, направленные на развитие познавательной деятельности и когнитивной независимости, творческих способностей личности, эффективного использования электронного образования, ресурсов, дистанционных образовательных технологий в системе высшего образования, а также выбор платформ электронного обучения и их научное обоснование. В частности, исследования, направленные на изучение содержания педагогического процесса в кредитно-модульной системе, целостности образовательного процесса, сущности психики человека, характера личностного уровня, его семантические и рефлексивные сферы, эффективного усвоения дидактических процессов, развитие самостоятельных и критически мыслящих, мобильных, творчески активных личностей с высоким уровнем профессионального мастерства имеют важное значение.

В нашей стране для решения основных задач системы высшего образования особое внимание уделяется формированию всесторонне развитой личности, развитию профессиональных знаний, навыков и умений у будущих специалистов, развитию в них навыков адаптации к новым изменяющимся технологиям и изменениям в профессиональной деятельности, а также формированию методов, направленных на дальнейшее повышение их профессиональной компетентности. В связи с этим достигнуты определенные результаты по использованию методов повышения профессиональной компетенции для повышения эффективности организации самостоятельной работы студентов в высших учебных заведениях. В Стратегии «Цифровой Узбекистан – 2030»³ определены задачи «...дальнейшее совершенствование электронных образовательных ресурсов системы высшего образования, а также обеспечение использования

³ Указ Президента Республики Узбекистан, от 5 октября 2020 года №УП-6079 «Об утверждении Стратегии «Цифровой Узбекистан-2030» и мерах по её эффективной реализации».

